

LEGAL BASIS OF SETTLEMENT OF CREDIT OPERATIONS IN THE ENTERPRISES

Mo'ydinov Ozodbek Olimjonovich,
ADU Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi.

muydinovozodbek3@gmail.com

+998(91)498-9555 Telegramm: @Ozodbek9555

Abstract

The strict adherence of these banks to the principles of loan repayment, processing, solvency and security, as stipulated in current legislation and agreed upon with the parties, is studied. Depending on the term, bank loans are short and long-term. With the temporary term (date) of the loan. The legal and regulatory documents on the procedure for repaying loans are studied.

Keywords: Bank, credit, Commercial bank, balance sheet, liquidity, Business entities, liabilities.

Introduction

Annotatsiya:

Ushbu maqolada banklarning amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan va tomonlar bilan kelishilgan holda kreditni qaytariish, muddatlilik, to'lovga qobilliyati va ta'minlanganlik printsiplariga qat'iy amal qilishi o'rganiladi. Muddatiga qarab bank kreditlari qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'ladi. Kreditning muddatliliği uni qaytarish muddati (sanasi) bilan belgilanadi. Kreditlarning qaytarilishi tartibi huquqiy-meyoriy xujjatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Bank, kredit, Tijorat bank, balans, likvidlik, Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, majburiyatlar.

Kirish

Bugungi kunda Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilgan bank kreditlari hajmining oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni undirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy nazorat qilib borish asosiy ishi deb talab qilinmoqda.



Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'z mablag'lari etarli bo'lmaganida bankdan kredit mablag'lari yoki boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan qarz mablag'lari olishlari mumkin.

Kredit — bu vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Asosiy qism. Kreditlash orqali aholining, korxonaning va davlatning bo'sh turgan pul mablag'lari banklarda to'planadi hamda muayyan haq evaziga vaqtincha foydalanish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga beriladi. Ma'lumki, ishlab chiqarish vositalari ko'rinishidagi kapitalning tarmoqdan-tarmoqqa o'tish imkoniyatlari juda cheklangan, lekin iqtisodiyotda har doim iqtisodiy resurslarni, eng avvalo kapitalni, tarmoqlar o'rtasida qayta taqsimlash zaruriyati mavjud bo'ladi. Bu vazifani eng oqilona tarzda kredit mexanizmi va uning tarkibiy kismi bo'lgan bank krediti ado etadi. Bank krediti vositasida moliyaviy resurslar pul kapitali sifatida jamlanadi hamda tarmoqlar va mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasida bozor talablari asosida taqsimlanadi, kreditni belgilangan muddat davomida qaytarish va kreditdan foydalanganlik uchun muayyan haq to'lash zarurligi kreditga olingan mablag'lardan yuqori samara bera oladigan faoliyat sohalarida foydalanishga majbur etadi. Shunday qilib, kredit iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bank kreditining muhim vazifalaridan biri bu ishlab turgan korxonalar mablag'larini doiraviy almashtirishning uzluksizligini ta'minlashdan iborat. Bu asosan qisqa muddatli kreditlash vositasida amalga oshiriladi.

Bank kreditlari — xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va ayrim jismoniy shaxslarning qarzga oladigan mablag'larining muhim manbai. Banklar vaqtincha bo'sh turgan mablag'lardan foydalanib, xo'jalik yurituvchi sub'ekt va aholining iste'mol ehtiyojlari uchun ana shu mablag'larni qarzni qaytarib olish tartibida ishgasoladi. Banklar amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan va tomonlar bilan kelishilgan holda kreditni qaytarib berish, muddatlilik, to'lovga qobillik va ta'minlanganlik printsiplariga qat'iy amal qilib beradi. Muddatiga qarab bank kreditlari qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'ladi. Kreditning muddatliligi uni qaytarish muddati (sanasi) bilan belgilanadi. Kisqa muddatli kredit bir yildan kam muddatga beriladi. Uzoq muddatli kreditlar bir yildan ortiq muddatga, odatda, yangi texnikani tatbiq etishga, ishlab chiqarishni kengaytirishga, uni qaytadan



tiklashga, qimmat asbob-uskunalarini sotib olishga va boshqa maqsadli dasturlarni amalga oshirishga olinadi.

21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar oliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"ga asosan 1-ildovaga muvoviq xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi chetlari rejasida quyidagicha:

III QISM. MAJBURIYA TLAR		
VI BO'LIM. JORIY MAJBURIYATLAR		
6800	QISQA MUDDATLI KREDITLAR VA QARZLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
6810	Qisqa muddatli bank kreditlari	
VII BO'LIM. UZOQ MUDDATLI MAJBURIYATLAR		
7800	UZOQ MUDDATLI KREDITLAR VA QARZLARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	P
7810	Uzoq muddatli bank kreditlari	

Banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlaridan kredit ko'rinishida olingan pul mablag'larining kirimi, pul mablag'larining boshqa hisob-kitob schyotlaridan qabul qilinishi 6810-«Qisqa muddatli bank kreditlari», 7810-«Uzoq muddatli bank kreditlari», 5510-«Akkreditivlar», 5520-«Chek daftarchalari», 5530-«Boshqa maxsus schyotlar», hamda bank ko'chirmalari va ularga ilova qilingan hujjatlar bo'yicha buxgalteriya hisobi registrlarining yozuvlari qarama-qarshi solishtirish yo'li bilan tekshiriladi.

O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, farmoni bank tizimining boshqarish mexanizmlarining xar bir elementini o'zaro bog'liq xolda o'rganish va tahlil etish orqali mavjud muammolarni echimini topish va ularni o'z vaqtida bartaraf etishni taqozo etadi. Hozirgi kunda bank aktivlari tarkibida kreditlarning ulushi 80 foizga, kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli kreditlarning ulushi 95 foizga, xorijiy valyutadagi kreditlarning ulushi 55 foizga yaqin bo'lishi kredit riskining darajasi yuqoriligidan hamda u to'g'risida ma'lumotlar tez va sifatli shakllanish zarurligidan dalolat beradi.

Tijorat banklar tomonidan kredit berish yanada kengayib bormoqda. Ular davr taraqqiyoti bilan shahdam qadam tashlash maqsadida hamda raqobat kurashiga

bardosh bera olishda o'z hizmat turlarini ko'paytirishlari va rivojlantirishlari shart. Bu o'z navbatida tijorat banklari xususiyl kapitalining milliy va halqaro standartlar darajasiga yaqinlashtirish bo'yicha ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar olib borilishini taqazo etmoqda.

Hozirgi kunda xar bir tijorat banki o'zining kredit siyosatini ishlab chiqib, kredit munosabatlarini ushbu siyosat orqali yuritadilar Markaziy bank esa kreditlash bo'yicha umumiy ko'rsatmalar beradi. Shu o'rinda kredit liniyalari haqida to'xtalib o'tsak. Xorijiy bank amaliyotida kreditlashning ikki usuli ma'lum. Birinchi usulning ahamiyati har bir ssuda induvidual tartibda ko'rib chiqilishidadir. Kredit ma'lum maqsaddagi mablag' ehtiyojini qondirishga beriladi. Ushbu usul aniq muddatga kredit ajratishda qo'llaniladi.

Ikkinchi usulda kredit bank tomonidan qarz oluvchiga oldindan belgilab qo'yilgan kredit limiti bo'yicha beriladi, bunda qarz oluvchi unga qo'yilgan to'lov hujjatini o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladi.

Kreditlashning ushbu shakli kredit liniyasi deb ataladi. Ochilgan kredit liniyasi kredit hisobiga barcha hisob-kitob pul hujjatlarini bank va mijoz o'ptasidagi shartnomaga asosan to'lash 1 yilga ochiladi, ammo kredit liniyasi undan qisqa muddatga ham ochilishi mumkin. Kredit liniyasi muddati davomida mijoz bank bilan qo'shimcha kelishuvni istagan vaqtida kredit olishi mumkin. Ammo bank qarz oluvchining moliyaviy holatini zaiflashganini aniqlasa, mijozga belgilangan limit chegarasida kredit berishdan bosh tortishi mumkin. Kredit liniyasi, odatda, moliyaviy barqaror va e'tiborli mijozlarga ochiladi. Mijoz iltimosiga binoan kreditlash limiti qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Kredit liniyasi – bank yoki boshqa kredit tashkilotining qarz oluvchiga ma'lum davr mobaynida kelishilgan limit doirasida huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan kredit berish majburiyatidir. Kredit liniyasining ochilishi kreditor va qarzorning uzoq muddat davomidagi xamkorligini anglatadi¹.

Shu o'rinda xalqaro kredit liniyasiga ta'rif berib o'tsak: xalqaro kredit liniyasi bu xalqaro miqiyosda qarz oluvchiga ma'lum davr mobaynida kelishilgan limit doirasida huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan kredit berish majburiyatidir.

Banklar, asosan, korxonalar mablag'larini jalb qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish va qaytarib olish, to'lovlilik va muddatlilik sharti bilan bo'sh mablag'larni joylashtirish uchun tashkil etilgan. Bundan tashqari, banklar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga kreditlar berish bilan ham shug'ullanadi. Kredit resurslaridan samarali foydalanish

¹ F.B.Yangiboyev. "Tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobini takomillashtirish".



natijasida korxonalar faoliyati uzluksizligi ta'minlanadi hamda ularning iqtisodiy ahvoli yaxshilanadi.

Kredit berish va uni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar bank qoidolari va bank bilan kredit oluvchilar o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida tartibga solinadi. Kredit olishda qarz oluvchilar bankka asoslangan ariza va unga tegishli hujjatlarni ilova qilib topshiradi.

Kredit olish uchun qarz oluvchi bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:²

- quyidagilar ko'rsatilgan kredit buyurtmanomasi: kredit miqdori, foydalanish muddati, maqsadi, ta'minoti, asosiy qarzlarni qaytarish va foizlarni to'lash manbalari;

- kredit hisobidan moddiy boyliklar sotib olish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun qarz oluvchi bilan tuzilgan shartnoma (kontrakt)lar yoki niyat bayonnomasining nusxasi;

- 1-shakl buxgalteriya balansi oxirgi hisobot davri uchun. Bu hujjat belgilangan tartibda soliq inspeksiyasi organlari tomonidan tasdiqlangan va unga quyidagilar ilova qilingan bo'lishi lozim:

- moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot;
- pul oqimlari harakati to'g'risida hisobot;
- boshqa kreditorlardan qarzlari hamda boshqa banklarda saqlanayotgan bo'sh mablag'lar bor-yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma;
- boshqa korxonalarni tashkil etishda o'z sarmoyasi bilan qatnashgani yoki qatnashmagani to'g'risidagi ma'lumotlar;
- debitorlik va kreditorlik qarzlari talqini. Unga muddati o'tgan debitorlik qarzlari (90 kundan ortiq) to'g'risidagi taqqoslash dalolatnomalari ilova qilinadi;
- kredit o'zini oqlashi hisob-kitobini chiqarish hamda kredit berishning maqsadga qanchalik muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilish uchun bankka kerak bo'ladigan boshqa qo'shimcha hujjatlar.

Kreditlash davri uchun biznes-reja o'z oborot mablag'larini to'ldirish uchun kredit berilayotganda biznes-reja xo'jalik boshqaruvining yuqori organi (vazirlik, idora) tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak;

O'z oborot mablag'larini to'ldirish uchun kredit berilayotganda yana quyidagilar ham taqdim etiladi:

- mablag'larga bo'lgan ehtiyoj hisob-kitobi;
- yangi ishlab chiqarishlarni joriy etish, texnikaning yangi turlarini

² Do'smurotov R.D. Audit asoslari. Darslik. – T.: 2003, 250-bet



o'zlashtirish orqali qo'shimcha foyda olishga qaratilgan tashqiliy-texnikaviy tadbirlar rejasi.

Ular xo'jalik boshqaruvining yuqori organi (vazirlik, idora) tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Bank talab qilingan hujjatlar to'plamini olib, ularni sinchiklab o'rganib chiqqach, korxonaning kredit qobiliyatini va to'lov layoqatini aniqlaydi hamda kredit bitimi tuzish mumkin yoki mumkin emasligi to'g'risida xulosa tayyorlaydi. Unda quyidagilar aks etadi:

- kredit maqsadi, muddati va miqdori;
- qarz oluvchining Ustav faoliyati kredit maqsadlariga mosligi;
- qarz oluvchining kredit qobiliyati;
- qarz oluvchining kredit tarixi;
- qarz oluvchining asosiy qarz va uning foizlari o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash bo'yicha moliyaviy imkoniyatlari;
- kredit narxi (foizlari);
- kredit ta'minoti etarliligi, but saqlanishi va nazorat qilina olishi;
- kredit berish bilan bog'liq xatar darajasi;
- kredit shartnomasi kuchga kirishi shartlari. Kredit shartnomasida quyidagilar ko'zda tutiladi:
 - kredit summasi va maqsadi, uni berish va qaytarish tartibi;
 - kredit bo'yicha majburiyatlar ta'minotining turi hamda baholanganqiymati;
 - foiz stavkasi, foizlarni hisoblash va to'lash tartibi;
 - tomonlarning kredit berish va uni qaytarish chog'idagi huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi;
 - kredit berish uchun zarur ma'lumotlar, hisob-kitoblar va boshqa hujjatlar ro'yxati va ularning davriyligi;
 - bankning qarz oluvchi kredit bitimi shartlarini bajarishi, kreditdan maqsadli foydalanishi va uni qanday o'zlashtirayotgani masalalarini tekshirishga doir huquqi;
 - tomonlarning boshqa majburiyatlari. Bank kreditini foydalanganlik uchun to'lanadigan haq foiz stavkasida o'z ifodasini topadi. Kreditlar bo'yicha foiz stavkasi Bank kredit siyosatiga asoslanib, korxona bilan o'zaro kelishilgan holda – boshqa garovdan holi bo'lishi.
- yuqori darajada likvid bo'lishi, ya'ni pul mablag'lariga aylantirishosonligi;
- uzoq vaqt (kamida kreditlash muddati) davomida qimmatini yo'qotmay

saqlash mumkinligi;

- mulk qiymati, mabodo uni sotishga to'g'ri kelsa, sotuv bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni qoplash hamda bunday mulkni sotganda qonunlarga ko'ra ko'zda tutilgan barcha soliqlarni to'lash uchun etarli diskont bilan belgilanishi lozim;

- mulkni garovga qo'yish uchun qonunlarga hamda Garov qo'yuvchining ta'sis hujjatlariga muvofiq davlat organlarining ham, barcha mulkdorlarning ham hamma zarur rozilik va ruxsatlari olinishi lozim. Garov sifatida ko'rsatiladigan mulkning but saqlanayotganini bank xodimlari kamida har yili ikki marta tekshirishlari va qayta baholashlari kerak. Foizlarni to'lash muddatlari kredit shartnomasida belgilanadi.

Bank kreditlari odatda aktiv qiymatining 80% bilan chegaralanadi. Xuddi shuningdek, bank kreditlarini berishda dastlab mustaqil baxolovchi (tashkilot) firmalar tomonida baxolangan garovni hozirgi bozor bahosining summasini ma'lumot uchun qabul qiladi va o'zining bank ekspertlari tomonidan 70-80% da qabul qiladi. Mustaqil baholovchi xususiy (tashkilot) firma tomonidan 80% da qabul qilingan garov ta'minoti predmetining baxosi sifatida belgilanib, tijorat bankiga 80 % qiymatda garovga olinadi.³

Bu quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

Mustaqil baholovchi xususiy (tashkilot) firma bozor bahosi 100 % baxoladi desak, **1(X)** - bu yerda garov ta'minotini Mustaqil baholovchi xususiy (tashkilot) firma bergan qiymat.

$$\mathbf{1(X) \rightarrow 100\% = 100\%}.$$

Tijorat bank ekspertlari esa, garov taminot qiymatini $X \rightarrow 80\%$ ga qabul qiladi. **2(X)** – bu yerda garov ta'minotini **tijorat banki ekspertlari** bergan qiymat.

$$\text{Ya'ni: } \mathbf{1(X) \rightarrow 100\%} \qquad \mathbf{2(X) = \frac{1(X) \cdot 80}{100} = 0.8}$$

$$\mathbf{2(X) \rightarrow 80\%}$$

0.8 kaysent qiymat kelib chiqadi va bank kredit shartnomasi bo'yicha garovga qo'yilayotgan garov ta'minotining qiymati sifatida qabul qilinadi va bank riskini hisobga olgan xolda shartnomaga qabul qilgan qiymatni 80 % i miqdirida kredit ajratadi. Bunda:

³ “Baholash Ekspertlik Markazi” MChJ №05/30 sonli baholash xisoboti. Xonobod-23.05.2019 yil.

2(X) – bu yerda garov ta'minotini tijorat banki ekspertlari bergan qiymat. 0.8 kayfitsent qiymat.

3(X) - Ajratilishi mumkin bo'lgan kredit miqdori.

$$2(X) \rightarrow 100\% \quad 3(X) = \frac{2(X) \cdot 80}{100} = 0.8 \quad \text{yoki } 0.8 * 0.8 = 0.64$$

$$3(X) \rightarrow 80\%$$

Bundan shu kelib chiqadiki, tijorat banklari Mustaqil baholovchi xususiy (tashkilot) firma bergan qiymatning 0.64 kayfitsentida yoki 64 % ini bank krediti qilib beradi.⁴

Korxonalar o'z mablag'lari manbalarini tahlil qilishi ularning to'lov layoqatiga baho berishda muhim o'rin tutadi. Ularning mulki va mablag'larining kelib chiqish manbalari balansning passivida ko'rsatiladi. Bular o'ziga qarashli va chetdan jalb qilingan manbalarga ajratiladi. Jalb qilingan manbalarga bank kreditlari va kreditorlik qarzlari kiradi.

Aktivlar, kapital va majburiyatlarni o'zaro taqqoslash asosida buxgalteriyabalansi likvidligiga baho beriladi. Bunda quyidagi mezonga tayaniladi;

Koeffitsiyent nomi	I-sinf	II-sinf	III-sinf
Mutlak ligvidlik koeffitsiyenti	$K1 \geq 0,25$	$0,25 > K1 \geq 0,05$	$0,05 > K1$
Oralik koplash koeffitsiyenti	$K2 \geq 1,5$	$1,5 > K2 \geq 0,50$	$0,50 > K2$
Joriy ligvidlik koeffitsiyenti	$K3 \geq 2$	$2 > K3 \geq 1$	$1 > K3$
Moliyaviy mustakillik koeffitsiyenti	$K4 \geq 0,6$	$0,6 > K4 \geq 0,3$	$0,3 > K4$
O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	$K5 \geq 0,5$	$0,5 > K5 \geq 0,10$	$0,10 > K5$
Tovar-moddiy zaxiralarning aylanuvchanligi koeffitsiyenti	$K6 \geq 1$	$1 > K6 \geq 0,5$	$0,5 > K6$
Aktivlarni rentabelligi koeffitsiyenti	$K7 \geq 0,05$	$0,05 > K7 \geq 0,01$	$0,01 > K7$
Sotish rentabelligi koeffitsiyenti	$K8 \geq 0,10$	$0,10 > K8 \geq 0,02$	$0,02 > K8$

K1- Mutlak ligvidlik koeffitsiyenti

K2- Oralik koplash koeffitsiyenti

K3- Joriy ligvidlik koeffitsiyenti

⁴ S.X.Rustamova, O.O.Mo'yidinov. Kredit operatsiyalar hisobi va auditning tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish. [Monografiya] – "Omadbek print number one" MCHJ. Andijon: 2025. – 100 b.

K4- Moliyaviy mustakillik koeffitsiyenti

K5- O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik koeffitsiyenti

K6- Tovar-moddiy zaxiralarning aylanuvchanligi koeffitsiyenti

K7- Aktivlarni rentabelligi koeffitsiyenti

K8- Sotish rentabelligi koeffitsiyenti

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, biz tahlil qilayotgan korxonada balans likvidligiga qo‘yilgan sakkizta shartdan K1, K2, K3, K4, K5, K6, K7, va K8 koeffitsientlari likvidliklik darajalarini bildiriradi. YA‘ni, korxonaning doimiy harakatdagi aktivlari uning muddati kelgan to‘lov majburiyatlarini qoplashga yetish va yetmasligini anglatadi. Bu esa korxona balansining likvidlikka darajasidan dalolat beradi.

Mamlakat hududidagi va chet eldagi banklardan olingan qisqa muddatlikredit bo‘yicha bank bilan bo‘ladigan hisob-kitoblar analitik hisobi olingan qarzlarning turlari bo‘yicha 38-qaydnomada, sintetik hisobi esa 4-jurnal-order yordamida yuritiladi.

Qisqa muddatli bank kreditlari olinganda 5110-“Hisob-kitob schyoti”, 6010-“Mol etkazib beruvchi va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar” va boshqa schyotlar debetlanadi va 6810-schyot kreditlanadi.

Limitlangan chek daftarchalari olish va akkreditiv qo‘yish uchun qisqa muddatli kreditlar rasmiylashtirilganda 5510-“Akkreditivlar”, 5520-“Chek daftarchalari” schyotlari debetlanadi va 6810-schyot kreditlanadi.

Limitlangan chek daftarchalari va ishlatilmay qolgan akkreditivlarning qoldig‘i hisoblab o‘tkazish yo‘li bilan yoki hisob-kitob schyotidan qisqa muddatli kreditlarni qaytarishda 6810-schyotning debeti va 5110, 5210, 5220, 5510, 5520 va 5530-schyotlar krediti bo‘yicha aks ettiriladi.

Bir yildan oshmagan muddatda to‘lanadigan veksellar va boshqa qarz majburiyatlarini hisobga olishga doir muomalalar bo‘yicha bank bilan hisob-kitoblar 6810-“Qisqa muddatli bank kreditlari” schyotining alohida analitik schyotida hisobga olinadi.

O‘zbekiston Respublikasidagi va xorijdagi qarz beruvchilardan 12 oydan oshmagan muddatga olingan qarzlarning 6820-“Qisqa muddatli qarzlarning” schyotida hisobga olinadi. Qarz beruvchilardan (banklardan tashqari) olingan mablag‘lar kirimi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar debeti va 6820-“Qisqa muddatli qarzlarning” schyotining krediti bo‘yicha aks ettiriladi. Olingan qisqa muddatli qarzlarning qaytarilganda esa 6820-“Qisqa muddatli qarzlarning” schyoti debetlanadi va pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar kreditlanadi. 6820-



“Qisqa muddatli qarzlar” schyoti bo'yicha analitik hisob qarz beruvchilar va qarzlarni qaytarish muddatlari bo'yicha yuritiladi.

Qisqa muddali bank kreditlari hisobini hisobga olish uchun quyidagi qaydnomadan foydalaniladi. Ushbu qaydnoma xo'jalik openatsiyalarini qayd etish jurnali va boshlang'ich hisob hujjatlari ma'lumotlari asosida to'ldiriladi.

Qisqa muddatli bank kreditlari bo'yicha operatsiyalar aks ettirilishi

№	Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit
1	Kredit olish aks ettiriladi (kredit qarz oluvchi korxonaning hisob-kitob hisobvarag'iga kelib tushdi)	5110	6810
2	Qarz oluvchi korxonaning mol etkazib beruvchi (pudratchi)ga bo'lgan qarzining kredit bilan to'lanishi aks ettirildi	6010	5110
3	Qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizlar hisoblandi	9610	6920
4	Kredit va foizlarni to'lanishi aks ettirildi	6810 6920	5110

Agar kreditni qaytarishni ta'minlash bo'yicha moddiy boyliklar garov sifatida rasmiylashtirilsa, ushbu boyliklar qiymatiga balansdan tashqari 009-“Majburiyatlar va to'lovlarni ta'minlash – berilgan” hisobvarag'i bo'yicha yozuv qayd etiladi.

Agar kreditning ta'minoti sifatida uchinchi shaxs (boshqa bank yoki boshqa korxona)ning kafolati rasmiylashtirilsa, unda olingan kafolatlar summasiga balansdan tashqari 008-“Majburiyatlar va to'lovlarni ta'minlash – olingan” hisobvarag'ida yozuv qayd etiladi.

Kredit shartnomasida belgilangan vaqtda to'lanmagan kreditlar va ular bo'yicha foizlar alohida hisobga olinishi lozim. Agar kredit shartnomasi muddati qarz oluvchi korxona va bank tomonidan kelishilib, kredit shartnomasiga tegishli qo'shimcha rasmiylashtirilgan holda uzaytirilsa, kredit muddati o'tgan hisoblanmaydi.

Xulosa. Bank amaldagi qoidalarga muvofiq tasdiqlangan Kreditlarni monitoring qilish tartibiga binoan qarz oluvchi faoliyatini doimiy nazorat qilib boradi, uning kredit qobiliyatini, to'lov intizomini tahlil qiladi va ma'lumotlar bazasini vujudga keltiradi.

Balansning likvidligi va to'lovga layoqatliligini tahlil qilish ehtiyoji korxona moliyaviy mablag'larda cheklanganligi, shuningdek, investorlar, aksiyadorlar va turli kreditorlar uchun to'lovga layoqatliligini aniqlash zaruriyati munosabati

bilan yuzaga keladi. Balansning likvidligini tahlil qilishda korxonaning to'lash qobiliyati ham baholanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Baholash Ekspertlik Markazi" MChJ №05/30 sonli baholash xisoboti. Xonobod-23.05.2019 yil.
2. S.X.Rustamova, O.O.Mo'ydinov. Kredit operatsiyalar hisobi va auditning tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish. [Monografiya] – "Omadbek print number one" MCHJ. Andijon: 2025. – 100 b.
3. B.A.Xasanov, M.Y.Raximov, Z.A.Muqumov, A.I.Aliqulov, A.B.Jumanova, N.SH.Xajimuratov, R.B.Xasanova; Moliyaviy tahlil. *Darslik*. / – T.: "Iqtisodiyot", 2019. – 736 b.
4. B.Mo'ydinov. "Iqtisodiy tahlil va audit" o'quv qo'llanma Andijon-2022
5. Do'smurotov R.D. Audit asoslari. *Darslik*. – T.: 2003, 250-bet
6. F.B.Yangiboyev. "Tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobini takomillashtirish".
7. <https://lex.uz/docs/-4581969> "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi o'zbekiston respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasining qonuni